

"JUDOLIK DIYORI" ROMANIDA KONFLIKTNING QO'LLANISHI

Jo'rayeva Manzura Ahronqulovna

FarDU (PhD) dotsenti

Tojaliyeva Nodira Asqarali qizi

FarDU magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada konflikt turlari haqida ma'lumot beriladi. Konfliktning "Judolik diyori" romanida qo'llanishi to'g'risida fikr yuritiladi*

Kalit so'zlar. *konflikt, ijtimoiy konflikt, obraz, xarakter, fikrlar konflikti, xarakterlar konflikti, kompozitsiya*

KIRISH

Tabiat va jamiyatdagi predmetlar ham o'ziga xos tuzilishiga ega. Chunonchi bog'bon muayyan maqsad bilan ko'chat o'tkazish jarayonida erga aniq shakl beradi yoki binokor o'zi qurayotgan binoning tashqi ko'rinishini ham diqqat markazida tutadi. SHuningdek maishiy, uy-ro'zg'or buyumlari ham ma'lum shaklda bo'ladi. Ana shu buyumning shakli o'ziga xos kompozitsiyasidir. Ma'lumki, kompozitsiya syujetdan kengroq hodisa sanaladi, chunki u syujetni ham, syujetdan tashqarida qoluvchi vositalarni ham o'zida jamg'aradi. Syujetdan tashqarida qolgan badiiy unsurlar - kompozision vositalar deb yuritiladi va ularning barchasi asarning birbutun va mukammal bo'lishiga xizmat qiladi.

Kompozitsiya – aniq aniq g'oyaviy-badiiy niyat taqozosiga ko'ra badiiy unsurlarning asar to'qimasidan joy olishi, asar qismlari, boblari va epizodlarining o'rinlashish tartibi, obrazlarning bir tizimga uyushuvi, ularning o'zaro muomalamunosabatlarining ifodalanish tarzi, tasvir vositalarining muayyan maqsadga xizmat qilish tasvirda muvofiqlik va me'yordir. Sodda qilib aytsak, kompozitsiya - Yozuvchi niyati asosida asar badiiy to'qimasining tuzilishi¹.

Adabiy asarda narsa, voqea va shaxslarni bir nuqtaga yig'adigan kuch bor. Bu g'oya, niyat, Yozuvchi ifodalamoqchi bo'lgan fikrdir. SHu yo'sinda san'atkorning e'tibor beradigan diqqat markazi paydo bo'ladi. Yozuvchi qamrab olingan hayot materialida nimalarnidir diqqat markazida tutadi, nimalarnidir o'zining diqqat markaziga olmaydi. Ya'ni har bir narsa, voqea, shaxsga ifoda qilmoqchi bo'lgan g'oya, niyatdan kelib chiqib o'rin beradi. Yozuvchi A. Tolstoy "maqsadsiz yoza berish mumkin emas"ligini aytib, kompozitsiyani "san'atkor diqqat markazining belgilanishi"² dir degan edi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kompozitsiya badiiy unsur sifatida tasvirlanayotgan hayot qonuniyatlari, Yozuvchi dunyoqarashi, badiiy metod va uslub, g'oyaviy – badiiy niyat, adabiy

¹ Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. T., O'zbekiston, 2002, 136-137-bet.

² Tolstoy A. O. Literature. M., 1956, s. 208, 211.

turlar va janrlar tabiati bilan tavsiflanadi. SHunga ko'ra har bir san'at asarining o'ziga xos kompozitsiyasi bo'ladi.

"Judorlik diyori" romani beshta kitobdan iborat pentologiya hisoblanadi. Asarning kompozitsiyasi ham trilogiya bo'lganligi uchun juda murakkabdir. "Judolik diyori" romani o'tgan asr o'rtalarida xalqimiz boshiga tushgan og'ir judoliklar, sinovlar, o'zbek xalqining buyuk bardoshi, eng mashaqqatli damlarda ham o'zligini saqlab qola olgani samimiyat bilan tasvirlangan.

Yozuvchi taqdir taqozosi bilan sarhad ortida qolgan Sultonmurod, Bahridin, Murodxo'ja va Marg'ubabegim kabi qahramonlarining vatan va diydor sog'inchlaribilan to'la keyingi hayotlarini asarning uchinchi kitobida o'sha samimiyat, o'sha tiniqlik ila tasvirlaydi. Biz ushbu maqolada "Judolik diyori" romanidagi konfliktlarga to'xtalib o'tishni lozim ko'rdik. Chunki konflikt kompozitsiyaning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi.

Konflikt – bu insonning maqsadga erishish yo'lidagi kurashi, harakat va faoliyatigina emas, balki shaxsning atrof-muhit hamda hodisalarga reaksiyasi, ba'zan so'zda ifodalanmaydigan va insonni uyoki bu xatti-harakatga da'vat etadigan ichki kechinmalari, o'zicha mulohaza qilib chiqargan qarori, qalb shuurida olovlangan tuyg'ular bilan kurashi va ularni eng olmasdan o'z yog'iga qovurilishi hamdir. Umuman, inson faoliyati ichki va tashqi kolliziyalarning birligidan iborat.

Konfliktning barcha tur va formalariga xos xususiyatlar asosiy elementar adabiyot taraqqiyotining barcha bosqichlari uchun ham xarakterlidir. Insoniyatning borliqni badiiy – estetik o'zlashtirish saviyasi, adabiyotning imkoniyatlari darajasiga muvofiq, ularni qay biri kuchliroq bo'lgan hamda etakchilik qilgan bo'lishi ehtimoldan uzoq emas. SHu jihatdan badiiy konfliktni quyidagi uch tipga ajratish mumkin:

- qarama-qarshi kuchlar kurashi tarzidagi konflikt;
- qarama-qarshi xarakterlar kurashi tarzidagi konflikt;
- qarama-qarshi tuyg'ular kurashi yoki ichki ruhiy kolliziya tarzidagi konflikt.

Konflikt bo'lmasa, asarda birlik ham, yaxlitlik ham bo'lmaydi. Odil Yoqubov bu haqda shunday deydi: «Hayot katta konfliktlar va yirik xarakterlar yaratish uchun istagancha material bera oladi». Romanda konflikt badiiy asarni tashkil qiluvchi boshqa barcha komponentlar bilan ajralmas birlikdagina hayotiy kuch, badiiy – estetik qimmatga ega bo'ladi. B.Imomovning fikricha, kishilar o'rtasidagi har qanday to'qnashuv ham badiiy konflikt bo'lavermaydi. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan qarama-qarshiliklarga konflikt bo'la oladi xolos³.

M. Qo'shjonov konfliktning ikki tipini ajratib ko'rsatadi: xarakterlararo to'qnashuv va ichki ziddiyatlar kurashi⁴. «Konflikt turlicha ideallarning

³ Imomov B. Hayot va dramatik konflikt. – T., 1968, 15-57-betlar.

⁴ O'zbek adabiyoti masalalari. – T., 1962, 127-bet.

to'qnashuvidir» -deb yozadi V. Xalizev⁵. Shundan kelib chiqib, u konfliktni ikki tipga ajratadi: birinchisi chigal konfliktlar bo'lsa, unga o'tkinchi, muayyan bir sharoit doirasida chegaralangan va alohida kishilar irodasi bilan echilishi mumkin bo'lgan konflikt, ikkinchisi substansional yoxud hayotdagi alohida shaxslarning harakat va jasoratlari natijasida vujudga kelmaydigan va yo'qolib ham ketmaydigan, faqat jamiyat hamda tabiatning irodasi bilangina paydo bo'lishi va yo'qolishi mumkin bo'lgan turg'un va muttasil qarama-qarshiliklar.

"Judolik diyori" romanida konfliktning har uchala turini uchratamiz. Ijtimoiy konfliktga Sultonmurod, Bahriddin va uning do'stlari va o'sha davr, o'sha jamiyat o'rtasidagi ziddiyatni misol qilishimiz mumkin. Bahriddin o'z harakatlari, o'qimishli inson bo'lganligi uchun o'sha jamiyatga sig'maydi. Sultonmurod esa o'qimishli, aqlli, kuchli, adolatparvar bola bo'lganligi uchun haqiqat uchun kurashadi. Bu esa o'sha jamiyat va o'sha zamon bilan shaxs o'rtasidagi konfliktni keltirib chiqaradi. Romanda xarakterlar o'rtasidagi konflikt judayam ko'p uchraydi. Sultonmurod va otliq odamlar o'rtasidagi ziddiyat, Marg'ubaning kuyovi bo'lmoqchi, ammo bo'lolmagan kuyov va Sultonmurod o'rtasidagi konflikt xarakterlar o'rtasidagi ziddiyatga misol bo'ladi. Kolliziya konflikt Sultonmurod, Murodxo'ja, Nusrat pochcha, Baxriddin, Marg'uba kabi obrazlarda ko'p uchraydi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION) Roman umuman badiiy asar uchun konflikt juda muhim ekanligini hisobga olsak, "Judolik diyori" romanida konfliktning har uchchala turi qo'llanishi romanni yanada o'qishli qiladi. Ziddi bo'lgan har narsa aniq ko'rinadi. Ushbu asarda ham qahramonlarning xarakter xususiyatlari aynan konflikt orqali ham yanada ochib berilgan. Inson ruhiy dunyosining turfa xil ko'rinishlari ham ijtimoiy konflikt orqali ko'rsatib beriladi. Inson adolatsiz zamonda yashar ekan unda davrga, undagi siyosat, ijtimoiy ahvolga nisbatan ichki nafrat dunyoga kelishi tabiiy. Sultonmurod va davr voqeligi vositasida biz aynan shu narsani ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

REFERENCES

1. Gafurovich, S. A. (2021). Analysis Of The Poem " Autumn Dreams" By Abdulla Oripov. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(01), 556-559.
2. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari . T., O'zbekiston, 2002, 136-137-bet.
3. Tolstoy A. O. Literature. M., 1956, s. 208, 211.
4. Imomov B. Hayot va dramatik konflikt. – T., 1968, 15-57-betlar.
5. O'zbek adabiyoti masalalari. – T., 1962, 127-bet.

⁵ Xalizev V. Drama kak yavleniya iskusstva. – M., 1966, 100-bet.

6. Xalizev V. Drama kak yavleniya iskusstva. – M., 1966, 100-bet.
7. Kayumov, A. (2021). Character And Psychophysiology. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 3, 9-13.
8. Mansurov, M.(2010). *Judolik diyori*. 1,2,3,4-kitoblar

